

MITTI MOYCHECHAKNING MILLIONGA TENG HUSUSIYATLARI. TABOBATDA VA  
INSON HAYOTIDAGI SHIFOBAXSH HUSUSIYATLARI

**Muhammadjonov Subhonjon Bakirjon o'g'li**

*Farg'ona davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti, Biologiya yo'nalishi talabasi*  
[hdh285663@gmail.com](mailto:hdh285663@gmail.com) 998913279551

**Elamonova Sitora Azimjon qizi**


[sitoraelamonova8@gmail.com](mailto:sitoraelamonova8@gmail.com) 998997447713

*Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti, Biologiya yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Biz ushbu maqolada ishning materialli sifatida Murakkabdoshlar Qoqio'tdoshlar (Compositae Asteraceae) oila vakillariga mansub Moychechak (Matricaria) turkumi vakilining hozirgi kunda insonlarda ko'plab uchraydigan turli xil kasalliklariga qarshi moychechak o'simligining gullaridan tabiiy tarzda olinadigan damlamalar va dorilar yordamida kasalliklardan halos bo'lish choralarini o'rganib chiqdik. Bundan tashqari bu o'simlikning hayotiy shakllari, tarqalgan areali haqida izlanish olib bordik.*

**Kalit so'zlar:** *Compositae Asteraceae. Flavon glikozidlar, Efir moy, Moychechakli choy, Aromaterapiya, Oshlovchi moddalar, Ekzema, Saraton yaralari, Mastit.*

Eng qadimgi dorivor o'simlik sifatida insonlarga ma'lum bo'lgan va juda katta qiziqish bilan o'rganilayotgan moychechak Murakkabdoshlar Qoqio'tdoshlar Compositae Asteraceae oilasining Moychechak (Matricaria) turkumiga mansub bir yillik o'simlik. Dorivor moychechaklarning bo'yi 40 sm bo'ladi. Poyasi bir yoki bir nechta, tik o'sadi, tepa qismidan shoxlanadi. Barglari ikki karra patsimon qirqilgan. To'pguli - savatcha, gullari oq, sariq xushbo'y. Iyun-Iyul oylarida gullab urug' hosil qiladi. Yevropa, Sibir, Kavkaz, O'rta Osiyoda uchraydi. O'zbekistonning Toshkent, Namangan viloyatlaridagi dorivor o'simliklar yetishtiriladigan xo'jaliklarda dorivor chittigul nomi bilan tanilgan Matricaria recutito turi ekiladi. Moychechakning 50 dan ortiq turi bor. Moychechak eng qadimgi, eng ko'p ishlatiladigan va samaradorligi yuqori bo'lgan dorivor o'simliklardan biri bo'lib, shamollash, yallig'lanish, mushaklarning spazimlari, yengil asab kasalliklari, uyqusizlik, oshqozon ichak kasalliklari, oshqozon yarasi, revmatik og'riqlar, ekzema, saraton yaralari, mastit, gemaroy, hayz davrining buzilishi. Tashqi tomondan chaqaloq bezi toshmasi, yorilgan ko'krak qafasi, suvchechak, quloq va ko'z infeksiyasi, ko'z kasalliklari, tiqilib qolgan ko'z yoshlari kanallari, kon'yuktivit, tish og'rig'i burun yallig'lanishi kabi qator kasalliklarni davolashda keng foydalaniladi. Moychechak guli tarkibida efir moylari(0,8%), flavon glikozidlar, kumarinlar, oqsil, C vitamini karotin va oshlovchi moddalar mavjud. Moychechak guli dorixonalarda quritilgan holda sotiladi. Undan moychechakli choy (damlama) tayyorlanadi. Statistika ko'ra dunyo bo'yicha kuniga 1 million stakandan ko'proq moychechak choyi iste'mol qilinarkan.



Moychechak gullarini qaytartibda yeg'ish qaytartibda saqlash haqida savol maydo bo'lishi mumkun. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki moychechak gulbarglari gorizontol holatga kelgan vaqtda yig'ish kerak. Bu jarayon gullash boshlanganidan keyin to'rtinchi kuni amalga oshiriladi. Agar gulbarglar yuqoriga yo'nalgan bo'lsa gullar hali yig'ishga tayyor emasligini bildiradi, pastga yo'nalgan bo'lsa bu gullar endi yig'ishga yaramaydi. Barcha moychechak turlari savatlarda yig'iladi, ularni selofan paketlarda yig'ish mumkin emas. Foydanish tartibi asablarni tinchlantiruvchi moychechak. Kun davomidagi toliqishdan halos bo'lmoqchi bo'lsangiz bir finjon moychechak choyidan iste'mol qilishingizni tavsiya etamiz. Uyquni me'yoriy bo'lishi uchun moychechak, lavanda va melissaning gullaridan 10 gr dan olib aralashtiring va 200 ml qaynoq suv soling hamda 15 daqiqadan so'ng iste'mol qiling. Biroz vaqtdan so'ng asablaringiz tinchlanganini va dam olganini sezasiz. Moychechak efir moylaridan aromaterapiyada bosh og'rig'idan halos bo'lish hamda asablarni tinchlantirish maqsadida foydalaniladi. Oshqozon yarasiga mitti moychechak gullarining foydasi. Moychechak gulida yiringlashning oldini oluvchi hususiyat bor. Oshqozon yarasida dalachoy, bo'yimodaron, shivit urug'i va moychechak gullaridan teng miqdorda olib aralashtiring. Aralashmadan 1 oshqoshiq olib 200 ml qaynoq suvga soling, 20 daqiqa tindirib, suzgichdan o'tkazib 2 oshqoshiqdan kuniga 3 mahal ovqatdan oldin iching. Oz fursatda yallig'lanish jarayoni bartaraf bo'ladi. Buyraklarimizga moychechakning foydasi Buyraklarni turli xil zaxarli moddalardan tozalashda va shamollash jarayonlarini bartaraf etishda moychechak foydalidir. Oshqovoq, dalachoy o'ti, zig'ir urug'i va moychechak gullaridan 1 osh qoshiqdan olib aralashtiring va 0,5 litr qaynoq suvda 30-40 daqiqa damlab qo'ying va 5 kun davomida ovqatdan 1 soat oldin iching.

Lat yeyishda moychechakdan foydalaning! Paylar cho'zilganda moychechak barglari shifobaxshdir. 100 gr moychechak barglarini 2 litr qaynoq suvga solib 1 soat davomida damlang. So'ng ushbu damlamadan vanna qiling. Tomoq og'rig'ida osson va tabiiy muolaja. Qurtilgan moychechak gullaridan 4 oshqoshiq olib 0.5 litr qaynoq suvga solib, 45 daqiqa dam bering va suzib oling. Kuniga 4-5 marta g'ar-g'ara qiling. Moychechakdan foydalanishga qarshi ko'rsatmalar ham mavjud bo'lib, barcha tabiiy preparatlarda bo'lganidek moychechakni ham qabul qilishda qarshi ko'rsatmalar bor. Agar moychechak damlamalarini iste'mol qilganingizda allergik holatlar yuz bersa, yuz va tanaga toshma toshishi, oshqozon og'rig'i kabi noxush holatlarni o'zingizda sezsangiz muolajani to'xtatishingiz kerak. Moychechakni siydik haydovchi va tinchlantiruvchi dori vositalari bilan birga qabul qilish mumkin emas. Sababi moychechakda ham shu hususiyatlar mavjud, agarda bu ikki preparat birgalikda qo'llansa miqdor oshib ketishi va salbiy ta'sir etishi mumkin. Mitti moychechak go'zal ko'rinishi bilan insonlarga estetik zavq beradi, sog'lik, mehri muhabbat, vafo va do'stlik timsoliga aylangan moychechaklar ko'plab insonlar qalbidan joy olib ulgurgan va sevimlisiga aylangan.

#### **REFERENCES:**

1. O'AHMEDOV A.ERGASHEV, A.ABZALOV, M.YULCHIYIVA D.MUSTAFAKULOV TOSHKENT 2020.
2. E.T BERDIYEV ,E.T AXMEDOV TABIIY DORIVOR O'SIMLIKLAR TOSHKENT 2019
3. <https://avitsenna.uz/romashka-moychechak-dorivorligi>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Moychechak>